

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**“IQTISODIYOT, BOSHQARUV,  
SOLIQLAR VA SUG'URTA ” KAFEDRASI**

**“Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida  
statistika tizimini yanada takomillashtirish”**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy  
konferensiya materiallari to'plami



Toshkent 2022 yil 18 mart

**“Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida statistika tizimini yanada takomillashtirish”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to’plami – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2022. – 631 б.

Xalqaro ilmiy-amaliy konfreensiya materiallari to’plamiga raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida statistika tizimini yanada takomillashtirishda dasturiy tizimni shakillantirish zaruriyati, raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, raqamli iqtisodiyotga o’tish sharoitida aholini ro’yxatga olishning dolzarb masalalari, statistika raqamli iqtisodiyotni shakllantirish manbalaridan biri sifatida, raqamli iqtisodiyot sharoitida statistika tizimini takomillashtirish istiqbollari, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda uni barcha yangilanishlarning lokomotiviga aylantirish zarurligiga doir islohotlarning ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etishga bag’ishlangan ilmiy tezis va maqolalar kiritilgan. Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari Toshkent moliya instituti “Iqtisodiyot, boshqaruv, soliqlar va sug‘urta” kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan fan arbobi, oliy ta’lim a’lochisi Yorqin Abdullaev tavalludining 80 yillik yubileyi va ilmiy pedagogik faoliyatining 60 yilligiga bag’ishlab o’tkazilgan konferensiya doirasida nashr qilingan.

**Tahrir hay’ati raisi:**

T.Z.Teshabaev - i.f.d., prof.

**Tahrir hay’ati a’zolari:**

S.U.Mehmonov – i.f.d., prof;

A.X.Pardaev – i.f.d., prof;

E.I.Ergashev – i.f.d., prof;

Y.Abdullaev - i.f.d., prof;

M.R.Qulmetov – PhD.

**Taqrizchilar:** M.Umarova– i.f.n., dotsent. A.D.Abduraxmonov – i.f.n., dotsent. Mazkur to’plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o’zлari mas’uldirlar

## MUNDARIJA

### **КИРИШ СҮЗИ**

Т.З.Тешабаев - и.ф.д., проф. Тошкент молия институти ректори.....	4
<b>1-Seksiya</b>	
<b>О‘zbekiston statiskasining asoschilaridan biri professor Y.Abdullaevning ijodiy va ilmiy faoliyatiga doir izlanishlari va hayot yo‘llari borasidagi qarashlar.</b>	
<b>С.Гулямов - академик</b> , Еркин Абдуллаев буюк олим ва ижодкор инсон.....	7
<b>Ш.Маматқұлов</b> . Ёрқин йүлли Ёрқинжон ! .....	9
<b>Қ.Абдурахмонов</b> . Олимлар ичинда ёрқин тимсолсиз.....	10
<b>Б.Ғойибназаров</b> . Устозга әхтиром.....	14
<b>А.Каримов</b> . Ўз касбининг фидоийси, қалби дарё инсон.....	16
<b>Н.Обломуродов</b> . Мехнати улуғлаган олим.....	17
<b>З.Давронов</b> . Ўргатиш учун ўрганган беназир инсон ҳақида.....	20
<b>Т.Маликов</b> . Ёрқин из қолдириб.....	23
<b>Н.Х.Хайдаров</b> . Статистика илмининг боғбони.....	29
<b>А.Ҳ.Аюбжонов</b> . Ўзбек статистик олимларининг ёрқин вакили.....	30
<b>А.Ж.Туйчиев</b> . Улуғ устоз!.....	33
<b>Х.Набиев</b> . Қадрдан хамкасбим.....	35
<b>С.С.Гуломов, М.Х.Саидов, А.А.Мадалиев</b> . Қадрли устоз Ёрқин Абдуллаевич, Нуротанинг Ёрқин фарзанди!.....	36
<b>Н.Хусанов</b> . Мушоҳада ва ибрат.....	37
<b>Э.Эргашев</b> . Ўзбек статистикасининг асосчиси, буюк қалб эгаси, илм фидоийси, ёркул абдуллаев – 80 ёшда.....	40
<b>Х.Д.Хужакулов</b> . Фан оламида серқирра ижод қилиб яшаётган устозимиз Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, иқтисод фанлари доктори, профессор ёрқин абдуллаевга эътирофларим.....	42
<b>К.Уразалиев</b> . Серқирра олим ва устоз.....	43
<b>А.А.Хаджимуратов</b> . Устоз изидан.....	45
<b>И.Якубов</b> . Профессор Ёрқин Абдуллаевни 80 йиллигига Жонкуяр.....	47
<b>И.А.Маткаримова</b> . Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, Ўзбекистон статистикасининг асосчиларидан бири, эл эъзозлаган инсон, олим ва мураббий, талабчан ва жонкуяр устозимиз ёрқин абдуллаевнинг ижодий ва илмий фаолиятига доир изланишлари ва ҳаёт йўллари борасидаги қарашлар.....	50
<b>2-Seksiya</b>	
<b>Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi istiqbollari</b>	
<b>М.Х.Саидов, А.В.Кучумов, И.С.Очилов, Ш.Х.Саттаров, Х.Б.Янгибаев</b> Стратегии развития цифровая экономика в сельском хозяйстве.....	54
<b>Ғойибназаров Б.К, Закирова У.М.</b> Ўзбекистон республикасида қишлоқ хўжалиги тармоғининг ривожланишини статистик баҳолаш.....	59
<b>Э.Эргашев</b> . Ўзбекистонда электрон тижорат фаолиятини ривожлантириш.....	62
<b>Саидов М.Х. Усманов Ж.А.</b> Инновационный метод оценки и регулирование продовольственного потенциала региона.....	64
<b>Мамадиёрөв О.У.</b> Иқтисодиётга давлат аралашувини камайтиришнинг ижобий томонлари.....	67
<b>Халимов Ж.Ш.</b> Давлат минтақавий сиёсатини амалга ошириш саноатни рақамлаштиришнинг муҳим унсури.....	69

<b>М.Х.Саидов, А.В.Кучумов, Ж.А.Усманов.</b> Инновационный метод оценки и регулирование продовольственного потенциала региона.....	71
<b>Паязов М.М.</b> Рақамли трансформациялашнинг хизматлар соҳасидаги аҳамияти.....	74
<b>С.Н.Сайфуллаев.</b> Рақамли иқтисодиёт шароитида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик ролини статистик баҳолаш.....	76
<b>Халимов Ж.Ш.</b> Минтақа саноатини инновацион ривожлантиришда хориж тажрибаси мухим омил.....	79
<b>Shomurodov R.T.</b> Experience of foreign countriyes and improving instruments of monetary policy in Uzbekistan.....	81
<b>Mavlonov S.X.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi istiqbollari.....	85
<b>R.G. Tashmatova.</b> The role of innovative financial management in optimization of the formation of state budget revenues.....	87
<b>Meyliyev O.R., Yandashova P.A.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi istiqbollari.....	88
<b>Jumayeva M.A.</b> Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ularning ish bilan bandligini ta'minlashning muhim omili.....	91
<b>Ismailova N. K.</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari.....	92
<b>Хамидова З.А.</b> Мамлакатимизда ҳунармандчиликнинг ривожланиш ҳолатининг статистик таҳлили.....	93
<b>Аъзамов Ш.М., Фойибназаров Б.К.</b> Миллий ҳисоблар тизимининг асосий стандартлари ва уларнинг ўзига хос хусусиятларини статистик тадқиқ этиш.....	96
<b>Сулейманов И.Р.</b> Роль банковской системы в цифровой интеграции с реальным сектором экономики.....	98
<b>Сулейманов И.Р.</b> Особенности взаимодействия банковской системы с реальным сектором экономики.....	99
<b>Розиков Ж.М.</b> Ўзбекистон шароитида мева-сабзавотчилик кластерларини бошқари ва ривожлантиришда хорижий давлатлар тажрибалар таҳлили.....	101
<b>Закиров И.Р.</b> Перспективы развития электронной коммерции в Республике Узбекистан в условиях цифровой экономики.....	105
<b>Исаев Р.А.</b> Рақамли иқтисодиёт шароитида тўқимачилик саноати корхоналари - да ривожланиш стратегиясини амалга оширишнинг ташкилий-бошқарув механизmlарини такомиллаштириш.....	106
<b>Музаффарова К.З, Шомуратова С.О</b> - Қашқадарё вилояти иқтисодиётини ривожлантиришда хорижий инвестицияларнинг аҳамияти.....	108
<b>Тожиева М.Ж.</b> Рақамли иқтисодиёт шароитида туризм хизматлари бозорини ривожлантириш истиқболлари.....	110
<b>Асраев У.М.</b> Рақамли иқтисодиёт таърифи, концепцияси ва унинг кўламини ўлчаш.....	112
<b>Б.А.Рахимов.</b> Тижорат банклари рақобатбардошлиги ва банк хизматларининг аҳамияти.....	115
<b>Рўзиев А.О.</b> Рақамли иқтисодиёт шароитида статистика фаолиятини ривожлантириш масалалари.....	117
<b>Т.Қ.Хидиров., З.Ш.Кудратов</b> Рақамли иқтисодиёт шароитида қайта ишлаш саноати корхоналарини кластер тизими асосида ривожлантириш.....	122
<b>Д.Шадибекова., Ж.Эркинов.,</b> Проблемы развитие логистики в Узбекистане...	125

ularda 85 mingdan ortiq talaba tahsil olmoqda. 2021-yilda yana 200 ta ana shunday markaz ochildi va faoliyat olib bormoqda. 2028-yilgacha IT-kompaniyalarga ekstraterritoriallik tamoyili bo'yicha imtiyozlar taqdim etiladi. (IT-parklardagi imtiyozlar: daromad solig'i – 7,5%, korporativ va ijtimoiy soliq – 0%, tovar va xizmatlar importi uchun bojxona to'lovlari – 0%).

Davlat iqtisodiy subyekt sifatida iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirishni quyidagi harakatlari orqali rag'batlantirishi mumkin:


- ✓ turli tashkilotlarni birlashtirgan umumiyytexnologik platformalar tashkilotchisi yoki muayyan texnologik echimlardan foydalanishga qo'yiladigan talablarni direktiv ravishda belgilovchi tartibga soluvchi sifatida harakat qilishi;
- ✓ raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni tartibga soluvchi amaldagi me'yoriy-huquqiy bazani doimiy ravishda takomillashtirish va buni muloqot rejimida va amalda yangi turdag'i axborot-huquqiy obyektlar va subyektlarga duch keladigan foydalanuvchilar, ishlab chiquvchilar va xizmat ko'rsatuvchi provayderlarning fikrlarini hisobga oлган holda amalga oshirishi;
- ✓ iqtisodiy, moliyaviy munosabatlarni raqamlashtirish, shu jumladan elektron hukumat tizimini va elektron formatda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ro'yxatini ishlab chiqish orqali umumiyyjarayonning ishtirokchisiga aylanishii;
- ✓ tashkilotlarda axborot tizimlarini, elektron xizmatlarni joriy etishni rag'batlantirish hamda raqamli texnologiyalarni, shuningdek, transchegaraviy onlayn savdoni rivojlantirish uchun soliq imtiyozlarini joriy etishi;
- ✓ IT-mutaxassislarini va dasturchilarning o'zlarini, shuningdek doimiy yangilanib turadigan raqamli texnologiyalardan foydalanishga qodir bo'lgan malakali foydalanuvchilardan zaruriy miqdorda kadrlar tayyorlashi;
- ✓ kibertahdidlardan shuningdek, raqamli iqtisodiyot bilan shug'ullanuvchi barcha subyektlarning ular to'playdigan, saqlaydigan va foydalanayotgan ma'lumotlari mumkin bo'lgan jinoiy harakatlardan ma'lum darajada himoyalanganligiga ishonchini ta'minlashi, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ilg'or axborot texnologiyalarini iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga olib kirish va joriy etish uchun jozibador sharoitlar yaratishi lozimdir.

Shu bilan birga, asosiysi, mamlakatimizda AKT ning, jumladan, yuqori tezlikdagi hamyonbop internetning rivojlanishi tadbirkorlik subyektlarining mehnat unumdarligini oshirish, tannarxni kamaytirish maqsadida turli ishlab chiqarish jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishdan manfaatdorligi bilan hamqadam bo'lishi kerak.

## **МАМЛАКАТИМИЗДА ҲУНАРМАНДЧИЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХОЛАТИНИНГ СТАТИСТИК ТАҲЛИЛИ**

**Хамидова З.А. – катта ўқитувчиси. ТДИУ**

Республикамиз мустақилликка эришгандан сўнг ҳунармандчиликни ривожлантириш давлат сиёсати даражасида кўтарилиб, уни ривожлантиришга жиддий эътибор қаратилди. Босқичма-босқич амалга оширилган ислохотлар натижасида мамлакатимизда 2000 йилдан 2015 йилгача «Ҳунарманд» Уюшмаси аъзолари сони мунтазам ўсиб борди. (1-расм)



**1-расм. Ўзбекистон Республикасида хунармандлар сонининг 2000-2020 йиллардаги динамикаси<sup>1</sup>**

1-расмдан кўриниб турибдики, 2015 йилдан унинг кўрсаткичидаги пасайиш кузатилиб, 22141 кишини ташкил этган бўлса, 2016 йилда аъзолар сони кескин 12318 кишига камайиб, 9823 кишини, 2017 йилда эса 11493 кишини ташкил этган.

Бунга бир қатор шарт-шаротларни сабаб қилиб кўрсатиш мумкин:

- бу вақт оралиғида бошқа соҳаларда кузатилгани каби уюшма ва вилоят бошқармалари томонидан, ноконуний хатти-ҳаракатлар, норасмий равишда хунармандларни уюшмага аъзо қилиш, натижада сунъий равишда хунармандларнинг сонини ошишига сабаб бўлган.

- бир неча йиллик юқоридаги вазият билан боғлиқ жараёнда уюшманинг кўплаб аъзолари икки ва ундан ортиқ йиллар давомида умуман хунармандчилик фаолияти билан шуғулланмаганлар, шунинг учун кейинчалик кенгаш қарори билан уюшма аъзолигидан чиқарилган.

- «Хунарманд» уюшмаси аъзоси бўлиб бошқа фаолият олиб бораётганлар ҳам уюшма аъзолигидан чиқарилган;

- аҳоли даромадларининг асосий қисмини нақдсиз пул маблағлари ташкил этиши ва нақд пул маблағларининг етишмаслиги, хунармандчилик маҳсулотларининг истеъмолини камайишига таъсир кўрсатган;

- яна бир асосий сабаб, Ўзбекистон Республикаси Президентнинг 27 декабрь 2016 йилдаги ПК-2699-сон «Ўзбекистон Республикасининг 2017 йилги асосий макроиктисодий кўрсаткичлари прогнози ва давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги қарорига асосан 2017 йил 1 январидан хунармандлар учун белгиланган даромад солигидан озод бўлиш имтиёзи бекор қилинди ва хунармандлар энг кам ойлик иш хақининг 50 фоизи миқдорида қатъий белгиланган солиқни тўлашлари белгилаб қўйилди.

Шунингдек, расмдан кўриниб турибдики, 2018 йилдан уюшмага аъзо хунармандлар сонининг 12642 тага кескин ортиши кузатилиб, барқарорлаша бошлади. Бунга асосий сабаб, бу соҳанинг қайта ислоҳ қилинганлигидадир, яъни,

<sup>1</sup> Республика «Хунарманд» уюшмаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

«Хунарманд» уюшмаси ва ҳунармандлар фаолияти танқидий жиҳатдан қайта баҳоланиб, кузатилган камчилик ва тўсик бўлаётган барча муаммолар эътиборга олиниб, 2017 йил 17 ноябрдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва ҳунармандларни ҳар томонлама кўллаб-кувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида» ги ПФ-5242-сонли фармони қабул қилингандиги ушбу соҳада ижобий ўзгаришларга туртки бўлди.

Кузатилган бир қатор камчиликларга қарамай, ҳунармандлар ва «Хунарманд» уюшмаси фаолияти қайта ислоҳ қилингандан сўнг, соҳа билан боғлиқ кўрсаткичлар мунтазам ўсиб борди. «Хунарманд» уюшмасига аъзо ҳунармандлар фаолиятини таҳлил қилишда уларнинг жинси, ёши ва ижтимоий ҳолати алоҳида аҳамият касб этади. Уюшма томонидан қайд этилган статистик маълумотларнинг йиллар бўйича чекланганлигини ҳисобга олиб, 2016 йилдан жорий давргача ва кварталлар бўйича сарҳисоб қилишга ҳаракат қилдик. Ҳунармандлар таркибига эътибор берсак, асосий улушини эркаклар ташкил этаётганлигини кўришимиз мумкин ва уларнинг салмоғи мунтазам равишда ортиб борган. (2-расм)




**2-расм. Ҳунарманд уюшмаси аъзоларининг таркиби бўйича маълумот<sup>1</sup>**

2017 йилдаги қабул қилинган қарор доирасида олиб борилган тарғибот ва ташвиқот ишлари натижасида, ўтган давр мобайнида «Хунарманд» уюшмаси томонидан рўйхатдан ўтган ҳунармандлар ва шогирлар сони ортиб борди. (3-расм) 2019 йил ноябрь ойида қабул қилинган қарорга кўра, ушбу соҳада яратилиши режа қилинган иш ўринларига солиштиrsак, амалда кўпроқ иш ўринлари яратилди, хусусан, 2018 йилда режа бўйича бу соҳада жами 26883 та иш ўринлари яратиш назарда тутилган бўлса, амалда 51% га кўп бажарилиб, жами 40634 та иш ўринлари яратилган.

Ҳунармандчилик фаолияти билан шуғулланаётган фуқаролар ва оиласлар, айниқса янгитдан ўз фаолиятини бошлаган ҳунармандларни ҳар томонлама кўллаб-кувватлаш, «Уста-шогирд» мактаблари фаолиятини такомиллаштириш ва самарадорлигини ошириш, ва шу асосда янги иш ўринлари ташкил этишда:

<sup>1</sup> Республика «Хунарманд» уюшмаси маълумоти асосида муаллиф томонидан тузилган.



**3-расм. Хунармандчилик соҳасида яратилган иш ўринлари тўғрисида маълумот<sup>1</sup>**

1. Хунармандчилик субъектларига давлат рўйхатидан ўтишда кўмаклашиш, уларга ер майдонлари ва бинолар ажратиш, муҳандислик коммуникация тармоқларига уланиш, уларни асбоб-ускуналар, жиҳозлар, хомашё ва материаллар билан узлуксиз таъминлаш, уларга имтиёзли кредитлар бериш бўйича самарали чора-тадбирларни амалга ошириш.

2. Халқ хунармандчилиги ва ижодий анъаналари кенг ривожланган шаҳар ва туманларда хунармандчиликни ривожлантириш марказлари ташкил этиш, хунармандчиликнинг ноёб турларини қайта тиклаш ва янада ривожлантириш, истеъмолчиларга хунармандчилик маҳсулотлари етказиб бериш учун бозор инфратузилмасини шакллантириш.

3. Хунармандчилик маҳсулотларини экспорт қилишни рағбатлантириш, хорижий мамлакатлarda ўтказиладиган кўргазма ва ярмаркаларда миллий хунармандчилик маҳсулотларини тақдимот қилишга кўмаклашиш мухим аҳамият касб этади.

### **МИЛЛИЙ ҲИСОБЛАР ТИЗИМИНИНГ АСОСИЙ СТАНДАРТЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИНИ СТАТИСТИК ТАДҚИҚ ЭТИШ**

**Ғойибназаров Б.К. – И.ф.д., профессор  
 Аъзамов Ш.М. – Ўзбекистон Республикаси  
 Давлат Статистика қўмитаси хузуридаги  
 Кадрлар малакасини ошириш  
 ва статистик тадқиқотлар  
 институти таянч докторанти**

Миллий ҳисоблар тизими (МХТ) – бу иқтисодий фаолият натижаларини макродаражада қайд этиш ва таҳлил қилиш учун фойдаланадиган ўзаро боғлик кўрсаткичлар, классификациялар ва счетлар тизимиdir. Асосий счетлар ишлаб

<sup>1</sup> Республика «Хунарманд» уюшмаси маълумоти.